



**O ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT AVTOMOBIL-YO'LLAR INSTITUTI**

**TOSHKENT AVTOMOBIL - YO'LLAR INSTITUTI
QOSHIDAGI UCHTEPA AKADEMIK LITSEYI**

«OLIY MATEMATIKA» KAFEDRASI

Sh.S. Matyoqubova, F.M.Zokirov

**MATEMATIKA PREDMETI
BO'YICHA TA'LIM
TEXNALOGIYALARI
(akademik litsey o'qituvchilari uchun)**

USLUBIY QO'LLANMA



TOSHKENT-2013

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS

TA'LIMI VAZIRLIGI

TOSHKENT AVTOMOBIL VA YO'LLAR INSTITUTI



“TASDIQLAYMAN”

AL va KKK ishi bo'yicha prorektor
p.f.n. N.A.Akbarov


“ ” 2013 yil

**TOSHKENT AVTOMOBIL VA YO'LLAR INSTITUTI QOSHIDAGI
UCHTEPA AKADEMIK LITSEYI**

“KELISHILGAN”

Akademik litsey o'quv ishlari bo'yicha
direktor o'rinbosari v.v.b. Sh.A.Raupova

“25”



2013 yil

“TASDIQLAYMAN”

Akademik litsey direktor v.v.b
F.B.Xalsaidov

“ ”



2013 yil

Муаллифлар:

**TAYI qoshidagi Uchtepa akademik litseyi
matematika fani katta o'qituvchisi:**

Sh.S.Matyakubova

TAYI, Oliy matematika kafedrası dotsenti

F.M.Zokirov

Taqrizchi:

**TAYI, Oliy matematika kafedra
mudiri professor:**

A.A.Rahimov


TOSHKENT AVTOMOBIL VA YO'LLAR INSTITUTI

“OLIY MATEMATIKA”

Kafedrasi majlisida muhokama qilindi va tasdiqlandi

Bayonnoma № « 5 »

« 24 » sentabr 2013 yil.

Kafedra mudiri professor  A.A.Rahimov

**TOSHKENT AVTOMOBIL VA YO'LLAR INSTITUTI QOSHIDAGI
UCHTEPA AKADEMIK LITSEYI**

“ANIQ FANLAR”

Kafedrasi majlisida muhokama qilindi va tasdiqlandi i

Bayonnoma № « 08 »

« 28 » 03 2013 yil.

Kafedra mudiri katta o'qituvchi  M.O'.Safarov

Uslubiy qo'llanma TAYI Ilmiy-Uslubiy Kengashi tomonidan tasdiqlangan.

(Bayonnoma №1, 2013yil 20 noyabr. Qayd raqami: 8.12)

Ushbu uslubiy qo'llanmada jahonn va mamlakatimizning yetakchi oliy o'quv yurtlarida ishlab chiqilgan ilg'or pedagogic texnologilarini akademik-litsey va kasb-hunar kolledjiari uchun "Matematika" predmetini o'qitishda ma'lum bir mavzulari uchun texnologiyalashtirishning qoidalarini hisobda olgan holda ishlab chiqilgan ta'lim texnologiyasi keitirilgan. Qo'llanmada ta'limning zamonaviy talablarini hisobga olgan holda nazariy va amaliy mashg'ulotlarini o'qitishda pedagogic texnologiyalardan insert, aqliy hujum, charhpalak, BBB jadvali, kiasterni tuzish, 5x4 usullari, muommoli o'qitish, ko'gazmali o'qitish, axborot ma'ruzalari kabi pedagogic va axborot texnologiyalaridan foydalanish tartibi aks ettirilgan.

Ushbu uslubiy qo'llanma barcha akademik-litseylar, kasb-hynar kolledjiarining o'qituvchilari, tinglovchilari uchun mo'ljallab tuzilgan.

1-mavzu: Tenglamalar. Tenglamaning xossalari. Teng kuchli tenglamalar.

Nazariy dars rejasi

Guruhlar: 20-25 talaba

Dars o'tilgan sana:

O'quv faninig nomi: Algebra

Mavzu nomi: Tenglamalar. Tenglamaning xossalari. Teng kuchli tenglamalar.

Darsning maqsadlari:

a) Ta'limiy: O'quvchilarda tenglama va uning yechimi to'g'risida bilim va ko'nikma hosil qilish.

b) Tarbiyaviy: O'quvchilarda milliy umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish.

c) Rivojlantiruvchi: O'quvchilarning estetik tuyg'ularini shakllantirish.

Darsdan kutilayotgan natijalar: mavzuni o'zlashtirgandan so'ng o'quvchilar quydagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

- 1.Tenglama haqida tushuncha.
- 2.Tenglamaning yechimlari haqida tushuncha.
- 3.Chiziqli tenglama haqida tushuncha.
- 4.Tenglamaning xossalari.
- 5.Teng kuchli tenglamalar haqida tushuncha.

Ta'lim metodlari:FSMO',Charxpalaktexnologiyasi

Baholash metodi: 5 ballik tizim

Axborot ma'nbalari va texnik vositalar:

1. "Algebra va matematik analiz asoslari" 1-qism. A.A. Abduhamedov va boshqalar.
2. Ma'ruza matni.
3. Axborotnoma

Dars turi: Nazariy, amaliy.

Darsga ajratilgan vaqt miqdori: 90 min.

Uyga vazifa:Chiziqli tenglamalar bo'yicha 10 ta test tuzish.

Darsning texnologik xaritasi

T/r	Mashg'ulot bosqichlari	Ajratilgan soat	Mashg'ulot mazmuni	Ta'lim metodlari	Ta'lim vositalari
1	Tashkiliy qism	5	Davomat, xona tozaligi, o'quvchilarning kiyinish odobi.		Jurnal, auditoriya.
2	Kirish qism (motivatsiya)	20	Uyga vazifani so'rash, o'tilgan mavzuni takrorlash	Aqliy hujum, klaster	Doska, kitob , tarqatma materiallar
3	Yangi mavzuning bayoni	30	Tenglamalar. Tenglamaning xossalari. Teng kuchli tenglamalar.	Charxpalak usuli	Ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar
4	Mustahkamlash (qo'llash)	25	Misollar echish	Kichik guruhlarda	Doska kitob tarqatma materiallar
5	Yakuniy qism	10	O'quvchilarni baholash, uyga vazifa berish.	FSMO'	Darslik

Tarif. Agar ikki tenglamadan birining ildizlari ikkinchisining ham ildizlari bo'lsa yoki ikkala tenglama ham ildizlarga ega bo'lmasa, bunday ikki tenglama teng kuchli tenglamalar deyiladi.

Harfiy ifodalardan tuzulgan, noma'lum son qatnashgan tenglik tenglama deyiladi.

Noma'lum sonning shu tenglamani to'g'ri tenglikka aylantiradigon qiymatiga, qiyatiga tenglamaning ildizi deyiladi

$ax=b$ ko'rinishdagi tenglik bir o'zgaruvchili chiziqli tenglama deyiladi

1.Tenglamaning istalgan hadi ishorasini qarama-qarshisiga o'zgartirib, uning bir qismidan ikkinchi qismiga o'tkazish mumkin.

Misol: $7x-25=3x+3$

$$7x-3x=25+3$$

$$4x=28$$

$$X=7 \quad \text{Javob: } 7$$

2.Tenglamaning ikki qismini nolga teng bo'lmagan bir xil songa ko'paytirish yoki bo'lish mumkin.

Misol: 1) $-1,1x=132$ 2) $2x=-6$

$$-1,1x/-1,1=132/1,1 \quad x = -120$$

$$2x/2 = -6/2 \quad x=-3$$

Javob: $X = -120$

Javob: $x = -3$

Misol: $9x-8=8x-7$ tenglama $4-3x=5x-4$ tenglama bilan teng kuchli, ikkala tomoni ham $x=1$ ildizga ega.

2-ilova

Charxpalak usuli

1. Talabalarni 3-4 guruhga kartochkalar yordamida ajratadi.
2. Har bir guruh liderini o'qituvchi o'zi tanlaydi.
3. Guruhga topshiriqlarni tarqatadi.
4. Barcha guruh topshiriqlarni bajarib bo'lgandan so'ng, guruh topshiriqlarini bir – biri bilan almashtiradi 3 marta
5. Guruh a'zolari topshiriqlarni bajarib bo'lgandan so'ng, topshiriqlar birinchi holatda o'z guruhlariga topshiriladi.
6. Guruhdan o'qituvchi tanlagan talaba prezentasiyaga tayyorlanadi

3-ilova

1. Ekspert varog'i. Tenglamanin yeching

$$1) \frac{4x-51}{3} - \frac{17-3x}{4} = \frac{x+5}{2}$$

$$2) (3x-4)(x-3)=(3x+2)(x-6)$$

$$3) (2x-3)(4x+1)=(4x-3)(2x-6)+18$$

$$4) 0,15(x-4)=9,9-0,3(x-1)$$

2. Ekspert varog'i. Tenglamalarni ildizga ega emasligini ko'rsating.

$$1) 28-20x = 2x+25-16x-12-6x \quad 2) 25x-17 = 4x-5-13x+14+34x$$

$$3) \frac{x-1}{3} + \frac{5x+2}{12} = \frac{5+3x}{4}$$

$$4) 5x+13-2x=3x-4$$

3. Ekspert varog'i. X ning istalgan qiymati tenglamaning ildizi bo'la olishini ko'rsating.

1) $10-4x+3=9x-2-6x+9-7x+6$

2) $9x+4-5x=8+7x-9-3x+5$

3) $6(1,2x-0,5)-1,3x=5,9x-3$

4) $8(1,3x+0,25)-6,6x=3,8x+7$

4. Ekspert varog'i. Tenglamani yeching.

1) $(x-2)(x-1)-x^2=5$

2) $(x+2)(x-3)=x^2-7$

3) $(x+7)(x-4)=(x-3)(x+2)$

4) $2(x+3)(x-4)=(2x-1)(x+2)-27$

5. Ekspert varog'i. Tenglamani yeching.

1) $3x(2x-1)-6x(7+x)=90$

2) $1,5(3+2x)=3x(x+1)-30$

3) $4,2(2x-7)=10:7$

4) $4(1-x)-7x=3(-2x+1)-2(x+13)$

4-ilova

Darsning yakuni.

Uyga vazifa: Mavzuga doir 10 ta test tuzish.

2-mavzu: Kvadrat tenglamalar va unga keltiriladigan tenglamalar. Viet teoremasi.

Nazariy dars rejasi

Guruhlar: 20-25 talaba

Dars o'tilgan sana:

O'quv faninig nomi: Algebra

Mavzu nomi: Kvadrat tenglamalar va unga keltiriladigan tenglamalar. Viet teoremasi.

Darsning maqsadlari:

- a) Ta'limiy:** Kvadrat tenglama va uni yechish usullari haqida bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish.
- b) Tarbiyaviy:** Mavzuni tushuntirish bilan birga o'quvchilarni Ona-vatanga mehr-muhabbatli qilib tarbiyalash.
- c) Rivojlantiruvchi:** O'quvchilarni estetik tuyg'ularini shakllantirish.

Darsdan kutilayotgan natijalar: mavzuni o'zlashtirgandan so'ng o'quvchilar quyidagi bilim va ko'nikmaga ega bo'ladilar.

1. Kvadrat tenglamalarning umumiy ko'rinishi.
2. Chala kvadrat tenglamalar haqida tushuncha.
3. Kvadrat tenglamani diskriminant yordamida yechish.
4. Viet teoremasi.
5. Kvadrat tenglamaga keltirilgan tenglamalar.
6. Bikvadrat tenglamalar haqida tushuncha.

Ta'lim metodlari: ekspress-test, guruhlarda ishlash

Baholash metodi: 5 ballik tizim.

Axborat ma'nbalari va texnik vositalar:

1. "Algebra va matematik analiz asoslari" 1-qism. A.A. Abduhamedov va boshqalar.
2. Axborotnoma (testlar to'plami).
3. "Oliy matematika qisqa kursi" V.E. Shneyder.

Dars turi: Nazariy, amaliy

Darsga ajratilgan vaqt miqdori: 90 min.

Uyga vazifa: Misollar yechish.

Darsning texnologik xaritasi

T/r	Mashg'ulot bosqichlari	Ajratilgan soat	Mashg'ulot mazmuni	Ta'lim metodlari	Ta'lim vositalari
1	Tashkiliy qism	5	Davomat, xona tozaligi, o'quvchilarning kiyinish odobi.		Jurnal, auditoriya.
2	Kirish qism (motivatsiya)	20	Uyga vazifani so'rash, o'tilgan mavzuni takrorlash	Aqliy hujum, klaster	Doska, kitob , tarqatma materiallar
3	Yangi mavzuning bayoni	30	Kvadrat tenglamalar va unga keltiriladigan tenglamalar. Viyet teoremasi	Guruhlarda ishlash (1,2-ilova)	Ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar
4	Mustahkamlash (qo'llash)	25	Misollar echish	Ekspres-test (3-ilova)	Doska kitob tarqatma materiallar
5	Yakuniy qism	10	O'quvchilarni baholash, uyga vazifa berish.	FSMO'	Darslik

1-ilova

$ax^2 + bx + c = 0$ $a \neq 0$ ko'rinishdagi tenglama kvadrat tenglama deyiladi., bunda a , b , c - tenglamaning koeffitsientlari, x - noma'lum son.

Agar $c = 0$ bo'lsa, $ax^2 + bx = 0$ bo'ladi. Bu tenglamaning yechimi: $x(ax+b)=0$

1) $X=0$, $x = -\frac{b}{a}$ ko'rinishda bo'ladi.

$b=0$ bo'lsa, tenglama $ax^2 + c = 0$ ko'rinishda bo'ladi.

Bunda: $ax^2 = -c$

$$x^2 = -\frac{a}{c}$$

2) Agar $ac < 0$ bo'lsa, tenglama 2 ta yechimga ega bo'ladi., $ac > 0$ bo'lsa tenglama haqiqiy ildizga ega bo'lmaydi.

3) $c=0$, $b=0$ bo'lsa, tenglama $ax^2 = 0$ ko'rinishda bo'ladi, va tenglamaning ildizi 0 ga teng bo'ladi.

Misol: 1) $8x^2 + 6x = 0$ 2) $-3x^2 + 27 = 0$ 3) $5x^2 = 0$

$$X(8x+6)=0$$

$$x^2 = 9$$

$$x^2 = 0$$

$$X=0, \quad x = -\frac{3}{4}$$

$$x=\pm 3$$

$$x=0$$

Ja $ax^2 + bx + c = 0$ ko'rinishdagi kvadrat tenglamani yechish:

$$x_{1,2} = \frac{-b \pm \sqrt{D}}{2a}; \quad D = b^2 - 4ac, \text{ D- diskriminant deyiladi.}$$

M: 3 x 1) $3x^2 - 5x + 2 = 0$ 2) $x^2 - 2x + 10 = 0$ 3) $16x^2 - 8x + 1 = 0$

$$D = 25 - 24 = 1$$

$$D = 4 - 40 = -36$$

$$D = 64 - 64 = 0$$

$$x_1 = \frac{5+1}{6} = 1$$

$$D < 0 \quad \text{bo'lsa,}$$

$$x = \frac{-b}{2a} = \frac{8}{32} = \frac{1}{4}$$

$$x_2 = \frac{5-1}{6} = \frac{2}{3}$$

haqiqiy yechimga

Javob: $x_1 = 1, x_2 = 2/3$

ega emas J: $\emptyset$

Javob: $x = 1/4$

$ax^2 + bx + c = 0$ ($a \neq 0$) tenglamani birinchi hadi oldidagi koeffitsientga bo'linsa:

$$x^2 + \frac{b}{a}x + \frac{c}{a} = 0$$

ko'rinishga keladi. Bunday tenglama keltirilgan kvadrat tenglama deyiladi. Agar $\frac{b}{a} = p, \frac{c}{a} = q$ deb olinsa, tenglama:

$$x^2 + px + q = 0$$

ko'rinishga keladi. Ushbu tenglamani Viyet teoremasi yordamida yechish mumkin. Viyet teoremasi:

Agar: x_1 va x_2 lar

$$x^2 + px + q = 0$$

tenglamaning ildizlari bo'lsa, u holda

$$x_1 + x_2 = -p$$

$$x_1 \cdot x_2 = q$$

Formulalar o'rinli, ya'ni keltirilgan kvadrat tenglama ildizlarining yig'indisi qarama-qarshi ishora bilan olingan ikkinchi koeffitsientga, ildizlarining ko'paytmasi esa ozod hadga teng.

Misol: $x^2 + 5x - 24 = 0$

$$\begin{cases} x_1 + x_2 = -5 \\ x_1 \cdot x_2 = -24 \end{cases} \Rightarrow x_1 = 8, x_2 = -3$$

O'z-o'zini nazorat uchun topshiriqlar.

2-ilova

1-Ekspert varag'i.

Kvadrat tenglamani yeching:

1) $25-16x^2 = 0$

2) $3x^2 = 5\frac{1}{3}$

3) $\frac{x^2-1}{3} = 5$

4) $10x+7x^2 = 2x^2 + 8x$

2- Ekspert varag'i.

Kvadrat tenglamani yeching:

1) $9x^2 - 6x + 1 = 0$

2) $36x^2 + 12x + 1 = 0$

3) $5x^2 + 2x + 3 = 0$

4) $3x^2 - x + 2 = 0$

3- Ekspert varag'i.

Kvadrat tenglamani yeching:

1) $2x(x+2)=8x+3$

2) $\frac{2x^2+x}{3} - \frac{2-3x}{4} = \frac{x^2-6}{6}$

3) $3x(x-2)-1=x-0,5(8+x^2)$

4) $\frac{x^2-3x}{7} + x = 11$

4- Ekspert varag'i.

Kvadrat tenglamani yeching:

1) $x^2 - 5x - 6 = 0$ 2) $x^2 - 8x + 15 = 0$

3) $x^2 + 8x + 7 = 0$ 4) $x^2 + 2x - 15 = 0$

3-ilova

1. Tenglamani yeching: $x^2 - 11 = 0$

A) $x = \sqrt{11}$ B) $x_{1,2} = \pm\sqrt{11}$ C) $x = -\sqrt{11}$ D) $x = \frac{11}{2}$ E) to'grisi yo'q

2. Tenglamani yeching: $3x^2 = 48$

A) $x = 4$ B) $x = -4$ C) $x_{1,2} = \pm 4$ D) $x = 8$ E) $x = 16$

3. Tenglamani yeching: $x^2 = 5x$

A) $\emptyset$ B) $x = 2,5$ C) $x = 0$ D) $x_1 = 0, x_2 = 5$ E) $x = 5$

4. Tenglamani yeching: $x^2 + 9x = 0$

A) $x_{1,2} = -9$ B) $x_{1,2} = \pm 3$ C) $x_{1,2} = 9$ D) $x_1 = 9, x_2 = 0$
E) $x_1 = 0, x_2 = -9$

5. Kvadrat tenglamani yeching: $x^2 + x - 6 = 0$

A) $x_1 = -3, x_2 = 2$ B) $x_1 = 3, x_2 = -2$ C) $x_{1,2} = \pm 6$
D) $x_1 = -2, x_2 = -3$ E) $x_{1,2} = \pm 3$

6. Kvadrat tenglamani yeching: $x^2 + 7x + 6 = 0$

A) $x_1 = 1, x_2 = -1$ B) $x_1 = -6, x_2 = -1$ C) $x_1 = -7, x_2 = -6$ D) $x_1 = -1, x_2 = -5$ E) $\emptyset$

7. Kvadrat tenglamani yeching: $x^2 + x + 1 = 0$

A) $x_1 = 0, x_2 = 1$ B) $x_{1,2} = \frac{\sqrt{3}}{2}$ C) $\emptyset$ D) $x_{1,2} = \pm\sqrt{-3}$

E) $x_{1,2} = -\frac{1}{2}$

8. Kvadrat tenglamani yeching: $x^2 - 7x + 10 = 0$

A) $x_1 = -2, x_2 = 2$ B) $x_1 = -5, x_2 = 2$ C) $x_1 = 5, x_2 = 1$

D) $x_1 = 2, x_2 = 5$ E) to'g'ri javob berilmagan

9. Kvadrat tenglamani yeching: $6x^2 - 5x + 1 = 0$

A) $x_1 = 0, x_2 = -\frac{5}{6}$ B) $x = \frac{1}{6}$ C) $x_1 = -\frac{1}{2}, x_2 = -\frac{1}{3}$

D) $x=0, x=5/6$ E) $x_1 = \frac{1}{3}, x_2 = \frac{1}{2}$

10. Kvadrat tenglamani yeching: $12x^2 + 7x + 1 = 0$

A) $x_1 = -\frac{1}{3}, x_2 = \frac{1}{4}$ B) $x_1 = -\frac{1}{3}, x_2 = \frac{1}{4}$ C)

$x_1 = \frac{1}{3}, x_2 = -\frac{1}{4}$

D) $x=-1/4, x=-1/3$ E) $x=1/2, x=1/4$

3-mavzu: Tenglamalarni yechish usullari. Matnli masalalar.

Nazariy dars rejasi

Guruhlar: 20-25 talaba

Dars o'tilgan sana:

O'quv faninig nomi: Algebra

Mavzu nomi: Tenglamalarni yechish usullari. Matnli masalalar.

Darsning maqsadlari:

a) Ta'limiy: Matnli masalalar yordamida tenglamalar tuzish va ularni yechish usullari haqida bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish.

b) Tarbiyaviy: O'quvchilarga mavzuni tushuntirish bilan birga, ularni qardoshlik ruhida tarbiyalab borish.

c) Rivojlantiruvchi: O'quvchilarni estetik tuyg'ularini shakllantirish.

Darsdan kutilayotgan natijalar: mavzuni o'zlashtirgandan so'ng o'quvchilar quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

1. Tenglamaning turlari haqida tushuncha.
2. Tenglamani yechishning bir necha usullari.
3. Matnli masalalarni tenglama tuzish orqali yechish.

Ta'lim metodlari: Aqliy hujum, insert texnologiyalari

Baholash metodi: 5 ballik tizim

Axborot ma'nbalari va texnik vositalar:

1. "Algebra va matematik analiz asoslari" 1-qism. A.A. Abduhamedov va boshqalar.
2. Axborotnoma (testlar to'plami).
3. "Oliy matematika qisqa kursi" V.E. Shneyder.

Dars turi: Nazariy, amaliy

Darsga ajratilgan vaqt miqdori: 90 min.

Uyga vazifa: Mavzu bo'yicha 10 ta test savoli tuzish

Darsning texnologik xaritasi

T/r	Mashg'ulot bosqichlari	Ajratilgan soat	Mashg'ulot mazmuni	Ta'lim metodlari	Ta'lim vositalari
1	Tashkiliy qism	5	Davomat, xona tozaligi, o'quvchilarning kiyinish odobi.		Jurnal, auditoriya.
2	Kirish qism (motivatsiya)	20	Uyga vazifani so'rash, o'tilgan mavzuni takrorlash	Aqliy hujum, klaster (1,2-ilova)	Doska, kitob, tarqatma materiallar
3	Yangi mavzuning bayoni	30	Tenglamalarni yechish usullari. Matnli masalalar	Insert texnologiyasi (3,4-ilova)	Ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar
4	Mustahkamlash (qo'llash)	25	Misollar echish	Kichik guruhlarda (5-ilova)	Doska kitob tarqatma materiallar
5	Yakuniy qism	10	O'quvchilarni baholash, uyga vazifa berish.	FSMO' (6-ilova)	Darslik

1-ilova

Aqliy hujum metodi qoidasi:

- 1. Aytilayotgan barcha g'oyalar bir-biriga nisbatan muhimlikda tengdir .*
- 2. Kiritilayotgan g'oyalar tanqid qilinmasligi kerak.*
- 3. G'oyani taqdim etayotgan paytda so'zlovchining gapini bo'lmaslik.*
- 4. So'zlovchiga nisbatan baholovchi komponent mavjud emas.*
- 5. Guruhning barcha ishtirokchilariga bir mavzu bo'yicha bir savol qo'yiladi.*
- 6. O'qituvchi o'quv jarayonida tashabbusni o'z qo'liga shunday tarzda oladi: u auditoriyadagi barcha talabalarga savol beradi va qandaydir maxsus mavzuga daxldor barcha mumkin bo'lgan fikrlarni aytishni so'raydi.*
- 7. Barcha, hatto, axmoqona g'oyalarni ham aytishga ruxsat beriladi. Aytilayotgan fikrlar ichida birgina asosiy mavzu saqlanib qolishi shart.*
- 8. Birortasining ham fikri sharhlanmaydi, tanqid qilinmaydi, baholanmaydi.*
- 9. Asosiy fikrlarni o'qituvchi flip- karta, doskaga yozadi yoki ekranda ko'rsatadi.*
- 10. Aqliy hujum tugagach, barcha g'oyalar to'planishi, guruhlariga ajratilishi yoki kategoriyalarga bo'linishi mumkin.*

O'tilgan mavzuni takrorlash uchun savollar:

2-ilova

1. Kvadrat tenglama deb nimaga aytiladi?
2. Qanday tenglamaga chala kvadrat tenglama deyiladi.
3. Viyet teoremasini qanday ko'rinishdagi tenglama uchun qo'llash mumkin.
4. Kvadrat tenglamani yechish usullari.

1. Ekspert varog'i.

Masala: Shaxtaga tosh tashlandi va uning shaxta tubiga urilganda chiqargan ovozi 9 sekunddan keyin eshitiladi. Tovush tezligini 320m/s , og'irlik kuchining tezlanishini esa $g=10\text{m/s}^2$ deb hisoblab, shaxtaning chuqurligini aniqlang.

Yechilishi: shaxtaning chuqurligini topish uchun toshning shaxta tubiga tushish vaqti t ni aniqlash yetarli, chunki shaxtaning chuqurligi erkin tushish qonuniga ko'ra $\frac{gt^2}{2}$ metrga teng.

Shart bo'yicha $g=10\text{m/s}^2$. Shuning uchun shaxtaning chuqurligi $5t^2$ metrga teng.

Ikkinchi tomondan, shaxtaning chuqurligini tovush tezligi 320m/s ni toshning shaxta tubiga borib tekkan ondan to zarba ovozi eshitulguncha o'tgan vaqtga, ya'ni $(9-t)$ sekundga ko'paytirib topish mumkin.

Demak, shaxtaning chuqurligi $320(9-t)$ metrga teng.

Shaxtaning chuqurligini aniqlash uchun topilgan ikki ifodani tenglashtirib, $5t^2 = 320(9-t)$ tenglamani hosil qilamiz. Bu tenglamani yechamiz:

$$t^2 - 64(9-t)$$

$$t^2 + 64t - 64 \cdot 9 = 0$$

Hosil qilingan kvadrat tenglamaning ildizlarni topamiz:

$$t_{1,2} = -32 \pm \sqrt{32^2 + 64 \cdot 9} = -32 \pm \sqrt{32(32 + 18)}$$

$$= -32 \pm \sqrt{32 \cdot 50} = -32 \pm \sqrt{16 \cdot 100}$$

$$= -32 \pm 40$$

$$t_1 = 8, \quad t_2 = -72$$

Toshning tushish vaqti musbat bo'lgani uchun $t=8\text{s}$ bo'ladi.

Demak, shaxtaning chuqurligi quydagiga teng:

$$5t^2 = 5 \cdot 8^2 = 320\text{ m}$$

Insert jadvali qoidasi:

V- olgan bilimiga to'g'ri keladi.

+ - yangi ma'lumot

-- - olgan bilimiga qarama-qarshi

? – tushunarsiz (aniqlanishi zarur bo'lgan ma'lumotlar)

V	+	-	?

3.Ekspert varog'i.

Masala. Qo'lyozmani ko'chirish uchun birinchi operator ikkinchisiga qaraganda 3 soat kam vaqt sarflaydi. Ular birgalikda ishlab hamma qo'lyozmani 6 soatu 40 minutda ko'chirib bo'lishdi. Hamma qo'lyozmani ko'chirish uchun ularning har biriga qanchadan vaqt talab qilinadi?

$$6\frac{2}{3}\left(\frac{1}{x} + \frac{1}{x+3}\right) = 1$$

$$\frac{1}{x} + \frac{1}{x+3} = \frac{3}{20}$$

$$20(x+3)+20x=3x(x+3)$$

$$40x+60=3x^2 + 9x$$

$$3x^2-31x-60=0 \quad x_1 = 12, \quad x_2 = -\frac{5}{3} \quad \text{Javob: 12 soat va 15 soat}$$

2. Ekspert varog'i.

Masala: Tezyurar avtobus avtovokzaldan 40 km uzoqlikdagi aeroportga jo'nadi. Oradan 10 minut o'tgandan keyin avtobusning ketidan taksida yo'lovchi jo'nadi. Taksining tezligi avtobus tezligidan 20km/soat ortiq. Agar ular aeroportga bir vaqtda borgan bo'lsa, taksi bilan avtobusning tezligini toping.

$$\frac{40}{x} - \frac{40}{x+20} = \frac{1}{6}$$

$$40 \cdot 6 \cdot (x+20) - 40 \cdot 6x = x(x+20)$$

$$240x + 4800 - 240x = x^2 + 20x$$

$$x^2 + 20x - 4800 = 0 \quad x_1 = 60, \quad x_2 = -80 \quad \text{Javob: } 60$$

O'z-o'zini nazorat uchun topshiriqlar:

1. Topshiriq. 400 km masofani tezyurar poyezd yuk poyezdiga qaraganda bir soat tezroq bosib o'tdi. Agar yuk poyezdining tezligi tezyurar poyezdnikidan 20 km/soat kam bo'lsa, har bir poyezdning tezligi qanday?

2. Kema daryo oqimi bo'yicha A bekatdan B bekatgabori. Kema yarim soat to'xtagandan keyin orqasiga qarab jo'nadi va A dan chiqqandan 8 soat o'tgandan keyin shu bekatga qaytib keldi. Agar A va B bekatlar orasidagi masofa 36 km ga teng, daryo oqimining tezligi esa 2 km/soat bo'lsa, kemaning turg'un suvdagi tezligi qanday?

3. 30 km li masofani chang'ichilardan biri ikkinchisiga qaraganda 20 min. tezroq bosib o'tdi. Birinchi chang'ichining tezligi ikkinchisidan 3 km/soat ortiq edi. Har bir chang'ichining tezligi qanday?

2. Topshiriq

1. Daraxt o'tqazishda ikki guruh ishladi. Birinchi guruh har kuni ikkinchisiga qaraganda 400 tup ortiq daraxt o'tqazib, hammasi bo'lib, 2700 tup daraxt o'tqazdi. Ikkinchi guruh ikki kun ortiq ishladi va 2500 tup daraxt o'tqazdi. Har bir guruh daraxt o'tqazishda necha kundan ishlagan?

2. Ikkita qurilish guruhi birgalikda ishlab, qo'ylar uchun qo'ton qurdi. Agar bu ishni bajarish uchun birinchi guruhga ikkinchisiga qaraganda 10 kun ortiq talab qilinsa, har bir guruh alohida ishlab, shunday qo'tonni necha kunda qurib bitkazadi?

3. Ikkita guruh birgalikda ishlab topshiriqni 6 kunda tamomladi. Agar guruhlardan biri shu topshiriqni bajarish uchun ikkinchisiga qaraganda 5 kun kam sarflasa, har bir guruh topshiriqni bajarish uchun necha kun sarf qiladi.

3. Topshiriq

1. Ko'paytmasi 210 ga teng bo'lgan ikkita ketma-ket natural sonni toping?

2. Ko'paytmasi 399 ga teng bolgan ikkita ketma-ket toq sonni toping?

3. Yuzi 2,45 ga teng bo'lgan bog' 630 m uzunlikdagi devor bilan o'rab olingan. Agar bog' to'g'ri to'rtburchak shaklda bo'lsa, uning bo'yi va enini toping?

Darsning yakuni

Uyga vazifa: mavzu bo'yicha 10 ta test savollari tuzish.

4-mavzu: Bezu teoremasi. Gorner sxemasi. Simmetrik ko'phadlar. Butun koeffitsientli ko'phadning ildizlarni topish.

Nazariy dars rejasi

Guruhlar: 20-25 talaba

Dars o'tilgan sana:

O'quv faninig nomi: Algebra

Mavzu nomi: Bezu teoremasi. Gorner sxemasi. Simmetrik ko'phadlar. Butun koeffitsientli ko'phadning ildizlarini topish.

Darsning maqsadlari:

a) Ta'limiy: Simmetrik ko'phadlar, yuqori darajali tenglamalarni yechish haqida bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish.

b) Tarbiyaviy: O'quvchilarda milliy, umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish.

c) Rivojlantiruvchi: O'quvchilarni estetik tuyg'ularini shakllantirish.

Darsdan kutilayotgan natijalar: mavzuni o'zlashtirgandan so'ng o'quvchilar quydagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

1. Simmetrik ko'phadlar haqida tushuncha.
2. Yuqori darajali tenglamalar.
3. Bezu teoremasi.
4. Gorner sxemasiyordamida tenglamalarni yechish.
5. Butun koeffitsientli ko'phadning ildizlarini topish.

Ta'lim metodlari:

Baholash metodi: 5 ballik tizim

Axborot ma'nbalari va texnik vositalar:

1. "Algebra va matematik analiz asoslari" 1-qism. A.A. Abduhamedov va boshqalar.
2. Axborotnoma (testlar to'plami).
3. "Oliy matematika qisqa kursi" V.E. Shneyder.

Dars turi: Nazariy, amaliy

Darsga ajratilgan vaqt miqdori: 90 min.

Uyga vazifa: Misollar yechish.

Darsning texnologik xaritasi

T/r	Mashg'ulot bosqichlari	Ajratilgan soat	Mashg'ulot mazmuni	Ta'lim metodlari	Ta'lim vositalari
1	Tashkiliy qism	5	Davomat, xona tozaligi, o'quvchilarning kiyinish odobi.		Jurnal, auditoriya.
2	Kirish qism (motivatsiya)	20	Uyga vazifani so'rash, o'tilgan mavzuni takrorlash	Aqliy hujum, klaster (1-ilova)	Doska, kitob, tarqatma materiallar
3	Yangi mavzuning bayoni	30	Bezu teorema si. Gornersxemasi. Simmetrik ko'phadlar. Butun koeffitsientli ko'phadning ildizlarini topish.	Kichik guruhlarda, charxpalak texnologiyasi (2,3,4-ilova)	Ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar
4	Mustahkamlash (qo'llash)	25	Misollar echish	Kichik guruhlarda (5-ilova)	Doska kitob tarqatma materiallar
5	Yakuniy qism	10	O'quvchilarni baholash, uyga vazifa berish.	FSMO' (6-ilova)	Darslik

O'tilgan mavzuni takrorlash.

1-ilova

Klasterni tuzish qoidasi

1. Aqlingizga nima kelsa barchasini yozing, g'oyalari sifatini muhokama qilmang, faqat ularni yozing.
2. Xatni to'xtatadigon imlo xatolariga va boshqa omillarga etibor bermang.
3. Ajratilgan vaqt tugaguncha yozishni to'xtatmang. Agarda aqlingizda g'oyalar kelishi birdan to'xtasa, u holda qachonki yangi g'oyalar kelguncha qog'ozga rasm chizib turing.

Yangi mavzu bayoni:

O'quv tarqatma materiallari.

2-ilova

Eten Bezu (1730-1783)- fransuz matematigi. $P(x)$ ko'phadni $x-a$ ikki hadga bo'lganda bo'linmada $Q(x)$, qoldiqda $R(x)$ qolsin.

$$P(x) = (x-a)Q(x) + R(x)$$

Agar bu munosabatga $x=a$ qo'yisa, $P(a) = 0 \cdot Q(a) + R(a) = R(a) = r$ hosil bo'ladi.

Bezu teoremasi. $P(x) = a_0x^n + a_1x^{n-1} + \dots + a_{n-1}x + a_n$ ($a \neq 0$) ko'phadni $x-a$ ga bo'lishdan chiqadigan r qoldiq shu ko'phadning $x=a$ dagi qiymatiga teng, $r = P(a)$.

Natijalar. $n \in \mathbb{N}$ bo'lganida:

1. $x^n - a^n$ ikki had $x-a$ ga bo'linadi. Haqiqatan, $P_n(a) = a^n - a^n = 0$.

2. $x^n + a^n$ ikki had $x-a$ ga bo'linmaydi. Haqiqatan, $P(a) = a^n + a^n = 2a^n \neq 0$

3. $x^{2n} - a^{2n}$ ikki had $x+a$ ga bo'linadi. Haqiqatan, $P(-a) = (-a)^{2n} - (-a)^{2n} = 0$

4. $x^{2n+1} - a^{2n+1}$ ikki had $x+a$ ga bo'linmaydi. Haqiqatan, $P(-a) = (-a)^{2n+1} - a^{2n+1} = -2a^{2n+1} \neq 0$

5. $x^{2n+1} + a^{2n+1}$ ikki had $x+a$ ga bo'linadi. Haqiqatan, $P(-a) = (-a)^{2n+1} + a^{2n+1} = 0$

6. $x^{2n} + a^{2n}$ ikki had $x+a$ ga bo'linmaydi. Haqiqatan, $P(-a) = a^{2n} + a^{2n} = 2a^{2n} \neq 0$

Misol: 1) $x^5 + x + 20$ ni $x+2$ ga bo'lishdan chiqadigan qoldiq
 $r = (-2)^5 + (-2) + 20 = -14$

2) $x^5 + x + 34$ ni $x+2$ ga bo'lishdan chiqadigan qoldiq

$r = (-2)^5 + (-2) + 34 = 0$. Demak $x=-2$ soni shu ko'phadning ildizi;

3) $x^5 - ax + 4$ ni $x+3$ ga bo'lishda qoldiqda $r=4$ qolsa, a nimaga teng? Yechish: $(-3)^5 - a \cdot (-3) + 4 = 4$ bundan $a=81$

3-ilova

$P(x) = a_0x^n + a_1x^{n-1} + a_2x^{n-2} + \dots + a_n$ ko'phadni $x-a$ ikkihadga bo'lishdagi qoldiqni hisoblashning Gorner (Xorner Uilyam(1876-1837) ingliz matematigi) sxemasideb ataluvchi usulni ko'rsatamiz.

$P(x) = Q(x)(x-a) + r$ bo'lsin bundan,

$Q(x) = b_0x^{n-1} + b_1x^{n-2} + b_2x^{n-3} + \dots + b_n$ da x ning bir xil darajalari oladigan koeffitsientlarni tenglashtirib quydagiga ega bo'lamiz.

Bo'linma va qoldiqni hisoblash quyidagi jadval yordamida topiladi.

	a_0	a_1	a_2	...	a_{n-1}	a_n
a		$ab_0 + a_1$	$ab_1 + a_2$	...	$ab_{n-1} + a_{n-1}$	$ab_{n-1} + a_n$
	$b_0 = a_0$	b_1	b_2	...	b_{n-1}	b_n

Misol: $P_3(x) = x^3 + 3x^2 + 5x + 7$ ni $2x+1$ ga bo'lishdan hosil bo'lgan qoldiqni toping.

Yechish: Qoldiq

$$r = P_3\left(-\frac{1}{2}\right) = \left(-\frac{1}{2}\right)^3 - 3 \cdot \left(-\frac{1}{2}\right) + 5 \cdot \left(-\frac{1}{2}\right) + 7 = \frac{29}{8} \text{ ga teng.}$$

Charxpalak usuli

1. Talabalarni 3-4 guruhga kartochkalar yordamida ajratadi.
2. Har bir guruh liderini o'qituvchi o'zi tanlaydi.
3. Guruhga topshiriqlarni tarqatadi.
4. Barcha guruh topshiriqlarni bajarib bo'lgandan so'ng, guruh topshiriqlarini bir – biri bilan almashtiradi 3 marta
5. Guruh a'zolari topshiriqlarni bajarib bo'lgandan so'ng, topshiriqlar birinchi holatda o'z guruhlariga topshiriladi.
6. Guruhdan o'qituvchi tanlagan talaba prezentasiyaga tayyorlanadi

O'z-o'ini nazorat qilish uchun topshiriqlar.

1. Topshir

2. iq:1) $x^4 - 3x^2 + 1$ ni $x-2$ ga 2) $x^5 - 4x^3 + x^2$ ni $x-3$ ga
 3) $x^5 - 4x^3 - x^2 + 1$ ni $2x-3$ ga 4) $x^4 - 3x^3 + x^2 - 1$ ni $3x-4$ ga

2.Topshiriq:

- 1) m ning qanday qiymatlarida $3x^4 + 2x^2 - m^2x - 2$ ko'phad $x-2$ ga qoldiqsiz bo'linadi.
- 2) m ning qanday qiymatlarida $3x^3 - 4x^2 - mx - 1$ ko'phad $x+1$ ga bo'linmaydi.
- 3) a va b ning qanday qiymatlarida $2x^4 + ax^3 + bx - 2$ ko'phad $x^2 - x - 2$ uchhadga qoldiqsiz bo'linadi?
- 4) m va n ning qanday qiymatlarida $x^3 + mx + n$ ko'phad $x^2 + 3x + 10$

Uchhadga qoldiqsiz bo'linadi?

3. Topshiriq:

Gorner sxemasi yordamida $P(x)$ ko'phadning $D(x)$ ikkihadga qoldiqli bo'ling:

1) $P(x) = x^2 - 5x - 7$ $D(x) = x - 1$

2) $P(x) = x^3 - 3x^2 + 5x - 6$ $D(x) = x - 2$

3) $P(x) = 3x^2 - 4x^3 - x + 1$ $D(x) = x + 3$

4) $P(x) = x^4 - 3x^3 + 2x^2 - 4x - 1$ $D(x) = x + 4$

4. Topshiriq:

Gorner sxemasidan foydalanib tenglamani yeching:

1) $3x^3 - 4x^2 + 5x - 18 = 0$ 2) $4x^4 + 8x^3 - 3x^2 - 7x + 3 = 0$

3) $x^3 - 4x^2 - 27x + 90 = 0$ 4) $x^4 + x^3 + x^2 + 3x + 2 = 0$

6-ilova

Darsning yakuni Uyga vazifa:

Gorner sxemasi yordamida $P(x)$ ko'phadni $D(x)$ ikkihadga qoldiqli bo'ling:

1) $P(x) = 2x^4 - 3x^2 - 5x + 2$, $D(x) = x + 1$

2) $P(x) = 3x^6 - 4x^5 - x^4 + x^3 - x^2 - 1$, $D(x) = x - 3$

3) $P(x) = x^4 - x^3 + 2x^2 - 5x - 42$, $D(x) = x + 2$

4) $P(x) = x^5 - 4x^3 - 3x^2 + 1$, $D(x) = x - 4$

5) $P(x) = x^6 - 5x^4 + 3x^2 - 5x + 6$, $D(x) = x + 2$

6) $P(x) = x^5 - 4x^3 + 2x^2 - 3$, $D(x) = x - 1$

.5-mavzu: Misollar yechish.

Nazariy dars rejasi

Guruhlar: 20-25 talaba

Dars o'tilgan sana:

O'quv faninig nomi: Algebra

Mavzu nomi: Misollar yechish

Darsning maqsadlari:

a) Ta'limiy: Birinchi va ikkinchi va undan yuqori darajali tenglamalarni yechish usullari haqida o'quvchilarda bilim va ko'nikma hosil qilish.

b) Tarbiyaviy: Mavzuni tushuntirish bilan bir qatorda, o'quvchilarni Ona-vatanga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

c) Rivojlantiruvchi: O'quvchilarni estetik tuyg'ularini shakllantirish.

Darsdan kutilayotgan natijalar: Dars yakunlangandan so'ng o'quvchilar quydagilar haqida bilim va ko'nikma hosil qilishlari lozim.

1. Tenglamaning turlari

2. kvadrat tenglama

3. Chala kvadrat tenglama

4. Viyet teoremasi

Ta'lim metodlari: Aqliy hujum

Baholash metodi: 5 ballik tizim.

Axborot ma'nbalari va texnik vositalar:

1. "Algebra va matematik analiz asoslari" 1-qism. A.A. Abduhamedov va boshqalar.

2. Axboratnoma (testlar to'plami).

3. "Oliy matematika qisqa kursi" V.E. Shneyder.

Dars turi: Nazariy, amaliy

Darsga ajratilgan vaqt miqdori: 90 min.

Uyga vazifa: Misollar yechish

Darsning texnologik xaritasi

T/r	Mashg'ulot bosqichlari	Ajratilgan soat	Mashg'ulot mazmuni	Ta'lim metodlari	Ta'lim vositalari
1	Tashkiliy qism	5	Davomat, xona tozaligi, o'quvchilarning kiyinish odobi.		Jurnal, auditoriya.
2	Kirish qism (motivatsiya)	20	Uyga vazifani so'rash, o'tilgan mavzuni takrorlash	Aqliy hujum, klaster (1-ilova)	Doska, kitob , tarqatma materiallar
3	Yangi mavzuning bayoni	30	O'tilgan mavzularga doir misollar yechish	Charxpalak usuli	Ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar
4	Mustahkamlash (qo'llash)	25	Misollar echish	Kichik guruhlarda (2-ilova)	Doska kitob tarqatma materiallar
5	Yakuniy qism	10	O'quvchilarni baholash, uyga vazifa berish.	FSMO' (3-ilova)	Darslik

Takrorlash uchun savollar:

1-ilova

Aqliy hujum metodi qoidasi:

- 1. Aytilayotgan barcha g'oyalar bir-biriga nisbatan muhimlikda tengdir .*
- 2. Kiritilayotgan g'oyalar tanqid qilinmasligi kerak.*
- 3. G'oyani taqdim etayotgan paytda so'zlovchining gapini bo'lmaslik.*
- 4. So'zlovchiga nisbatan baholovchi komponent mavjud emas.*
- 5. Guruhning barcha ishtirokchilariga bir mavzu bo'yicha bir savol qo'yiladi.*
- 6. O'qituvchi o'quv jarayonida tashabbusni o'z qo'liga shunday tarzda oladi: u auditoriyadagi barcha talabalarga savol beradi va qandaydir maxsus mavzuga daxldor barcha mumkin bo'lgan fikrlarni aytishni so'raydi.*
- 7. Barcha, hatto, axmoqona g'oyalarni ham aytishga ruxsat beriladi. Aytilayotgan fikrlar ichida birgina asosiy mavzu saqlanib qolishi shart.*
- 8. Birortasining ham fikri sharhlanmaydi, tanqid qilinmaydi, baholanmaydi.*
- 9. Asosiy fikrlarni o'qituvchi flip- karta, doskaga yozadi yoki ekranda ko'rsatadi.*
- 10. Aqliy hujum tugagach, barcha g'oyalar to'planishi, guruhlariga ajratilishi yoki kategoriyalarga bo'linishi mumkin.*

1. Kvadrat tenglama deb nimaga aytiladi?
 2. Qanday tenglamaga chala kvadrat tenglama deyiladi.
 3. Viyet teoremasini qanday ko'rinishdagi tenglama uchun qo'llash mumkin.
 4. Kvadrat tenglamani yechish usullari.
- O'z-o'zini nazorat uchun topshiriqlar.

2-ilova

1. Topshiriq:

$$1.) x^2 + 10x = 39 \quad 2) x^2 + 5x = 24$$

$$3) x^2 + 10x = 56 \quad 4) x^2 + (10 - x)^2 = 58$$

2. Topshiriq:

$$1) \left(\frac{x}{3} + 1\right)\left(\frac{x}{4} + 1\right) = 20 \quad 2) 4x(10-x) = x^2$$

$$3) \frac{25}{9}x^2 = 100 \quad 4) x^2 + 21 = 10x$$

3. Topshiriq:

$$1) 3x + 4 = x^2 \quad 2) \frac{x}{3} \cdot \frac{x}{4} = x + 24$$

$$3) \frac{10-x}{x} + \frac{x}{10-x} = 2\frac{1}{6} \quad 4) 100 + x^2 - 20x = 81x$$

4. Topshiriq:

$$1) 30x = 100 + x^2 \quad 2) 4x \cdot 5x = 2x^2 + 36$$

$$3) 13^2 - x^2 = 15^2 - (14 - x)^2 \quad 4) (10 - x)^2 - x^2 = 40$$

Darsning yakuni. 3-ilova

Uyga vazifa: Mavzuga doir qo'shimcha ma'lumotlar to'plash.

6-mavzu: Yuqori darajali tenglamalarni yechish.

Nazariy dars rejasi

Guruhlar: 20-25 talaba

Dars o'tilgan sana:

O'quv faninig nomi: Algebra

Mavzu nomi: Yuqori darajali tenglamalarni yechish.

Darsning maqsadlari:

a) Ta'limiy: O'quvchilarga yuqori darajali tenglamalarni yechish usullari haqida ma'lumot berish.

b) Tarbiyaviy: O'quvchilarga mavzuni tushuntirish bilan bir qatorda, ularning do'stlik, qardoshlik hissini uyg'tish.

c) Rivojlantiruvchi: O'quvchilarni estetik tuyg'ularini shakllantirish.

Darsdan kutilayotgan natijalar: mavzuni tushuntirgandan so'ng, o'quvchilar quyidagi bilimga ega bo'ladilar.

1. Yuqori darajali tenglamalarning turlari.
2. Bikvadrat tenglama haqida tushuncha.
3. Ikki hadli tenglama va uni yechish usullari.
4. Uch hadli tenglama va uning ildizlari.
5. Chap tomoni ko'paytuvchilarga ajratiladigan tenglamalar

Ta'lim metodlari: Aqliy hujum, Insert jadvali

Baholash metodi: 5 ballik tizim.

Axborat ma'nbalari va texnik vositalar:

1. "Algebra va matematik analiz asoslari" 1-qism. A.A. Abduhamedov va boshqalar.
2. Axborotnoma (testlar to'plami).
3. "Oliy matematika qisqa kursi" V.E. Shneyder.

Dars turi: Nazariy, amaliy

Darsga ajratilgan vaqt miqdori: 90 min.

Uyga vazifa: Misollar yechish.

Darsning texnologik xaritasi

T/r	Mashg'ulot bosqichlari	Ajratilgan soat	Mashg'ulot mazmuni	Ta'lim metodlari	Ta'lim vositalari
1	Tashkiliy qism	5	Davomat, xona tozaligi, o'quvchilarning kiyinish odobi.		Jurnal, auditoriya.
2	Kirish qism (motivatsiya)	20	Uyga vazifani so'rash, o'tilgan mavzuni takrorlash	Aqliy hujum, klaster (1-ilova)	Doska, kitob, tarqatma materiallar
3	Yangi mavzuning bayoni	30	Yuqori darajali tenglamalarni yechish.	Insert jadvali (2-ilova)	Ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar
4	Mustahkamlash (qo'llash)	25	Misollar echish	Kichik guruhlarda (3-ilova)	Doska kitob tarqatma materiallar
5	Yakuniy qism	10	O'quvchilarni baholash, uyga vazifa berish.	FSMO' (4-ilova)	Darslik

Takrorlash uchun savollar.

Aqliy hujum metodiqoidasi:

- 1. Aytilayotgan barcha g'oyalar bir-biriga nisbatan muhimlikdatengdir .*
- 2. Kiritilayotgan g'oyalar tanqid qilinmasligi kerak.*
- 3. G'oyani taqdim etayotgan paytda so'zlovchining gapini bo'lmaslik.*
- 4. So'zlovchiga nisbatan baholovchi komponent mavjud emas.*
- 5. Guruhning barcha ishtirokchilariga bir mavzu bo'yicha bir savol qo'yiladi.*
- 6. O'qituvchi o'quv jarayonida tashabbusni o'z qo'liga shunday tarzda oladi: u auditoriyadagi barcha talabalarga savol beradi va qandaydir maxsus mavzuga daxldor barcha mumkin bo'lgan fikrlarni aytishni so'raydi.*
- 7. Barcha, hatto, axmoqona g'oyalarni ham aytishga ruxsat beriladi. Aytilayotgan fikrlar ichida birgina asosiy mavzu saqlanib qolishi shart.*
- 8. Birortasining ham fikri sharhlanmaydi, tanqid qilinmaydi, baholanmaydi.*
- 9. Asosiy fikrlarni o'qituvchi flip- karta, doskaga yozadi yoki ekranda ko'rsatadi.*
- 10. Aqliy hujum tugagach, barcha g'oyalar to'planishi, guruhlariga ajratilishi yoki kategoriyalarga bo'linishi mumkin.*

1. Kvadrat tenglama deb nimaga aytiladi?
2. Qanday tenglamaga chala kvadrat tenglama deyiladi.
3. Viyet teoremasini qanday ko'rinishdagi tenglama uchun qo'llash mumkin.
4. Kvadrat tenglamani yechish usullari.
5. Bezu teoremasi.
6. Bezu teoremasidan kelib chiqadigan natijalar.
7. Gorner sxemasi

Insert jadvali qoidasi:

V- olgan bilimiga to'g'ri keladi.

+ - yangi ma'lumot

-- - olgan bilimiga qarama-qarshi

? – tushunarsiz (aniqlanishi zarur bo'lgan ma'lumotlar)

V	+	-	?

Mashg'ulotni jonlantirish uchun topshiriqlar.

1. Ekspert varog'i.

Gorner sxemasi yordamida tenglamaningbutun ildizlarni toping:

$$1) x^4 + 2x^3 + 4x^2 + 3x - 10 = 0 \quad 2) x^3 + 7x^2 + 14x + 8 = 0$$

$$3) x^4 - x^3 + 2x^2 - x + 1 = 0 \quad 4) x^4 + x^2 + x + 2 = 0$$

2.Ekspert varog'i.

Gorner sxemasi yordamida tenglamaning ratsional ildizlarni toping:

$$1) 3x^3 - 4x^2 + 5x - 18 = 0 \quad 2) 4x^4 + 8x^3 - 3x^2 - 7x + 3 = 0$$

$$3) x^3 - 4x^2 - 27x + 90 = 0 \quad 4) x^4 + x^3 + x^2 + 3x + 2 = 0$$

3. *Ekspert varog'i.*

Gorner sxemasidan foydalanib tenglamaning barcha haqiqiy ildizlarni toping.

1) $2x^4 + 3x^3 - 8x^2 - 9x + 6 = 0$ 2) $2x^4 - 5x^3 - x^2 + 5x + 2 = 0$

3) $5x^4 - 3x^3 - 4x^2 - 3x + 5 = 0$ 4) $4x^4 - 3x^3 - 8x^2 + 3x + 4 = 0$

4. *Ekspert varog'i.*

Gorner sxemasidan foydalanib tenglamaning ratsional ildizlarni toping.

1) $x^4 - x^3 + x + 2 = 0$ 2) $x^4 - 4x^3 - 13x^2 + 28x + 12 = 0$

3) $2x^3 - 5x^2 + 8x - 3 = 0$ 4) $3x^4 + 4x^2 + 5x - 12 = 0$

Darsning yakuni.

4-ilova

Uyga vazifa: Mavzuga doir 10 ta test tuzib kelish.

7-mavzu. Tenglamalar sistemasini tuzishga doir masalalar.

Nazariy dars rejasi

Guruhlar: 20-25 talaba

Dars o'tilgan sana:

O'quv faninig nomi: Algebra

Mavzu nomi: Tenglamalar tuzishga doir masalalar.

Darsning maqsadlari:

a) Ta'limiy: O'quvchilarda masalalarni tenglamalar yoki tenglamalar sistemasi yordamida yechish haqida bilim ko'nikma va malaka hosil qilish.

b) Tarbiyaviy: Mavzuni boshqa fanlar bilan bog'lagan holda o'tib borib, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otish.

c) Rivojlantiruvchi: O'quvchilarning estetik tuyg'ularini shakllantirish.

Darsdan kutilayotgan natijalar: Dars yakunlangandan so'ng o'quvchilar quydagilar haqida bilim va ko'nikma hosil qilishlari lozim.

1. Foizga doir misollar yechish.
2. Noma'lum sonlarni topishga doir masalalar.
3. Qotishmalarga doir misollar yechish.
4. Tezlikni hisoblashga doir masalalar yechish

Ta'lim metodlari: FSMO', guruhlarda ishlash

Baholash metodi: 5 ballik tizim.

Axborot ma'nbalari va texnik vositalar:

1. "Algebra va matematik analiz asoslari" 1-qism. A.A. Abduhamedov va boshqalar.
2. Axborotnoma (testlar to'plami).
3. "Oliy matematika qisqa kursi" V.E. Shneyder.

Dars turi: Nazariy, amaliy

Darsga ajratilgan vaqt miqdori: 90 min.

Uyga vazifa: Misollar yechish.

Darsning texnologik xaritasi

T/r	Mashg'ulot bosqichlari	Ajratilgan soat	Mashg'ulot mazmuni	Ta'lim metodlari	Ta'lim vositalari
1	Tashkiliy qism	5	Davomat, xona tozaligi, o'quvchilarning kiyinish odobi.		Jurnal, auditoriya.
2	Kirish qism (motivatsiya)	20	Uyga vazifani so'rash, o'tilgan mavzuni takrorlash	Aqliy hujum, klaster	Doska, kitob , tarqatma materiallar
3	Yangi mavzuning bayoni	30	Tenglamalar tuzishga doir masalalar	Guruhlarda ishlash (1-ilova)	Ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar
4	Mustahkamlash (qo'llash)	25	Misollar echish	Kichik guruhlarda (2-ilova)	Doska kitob tarqatma materiallar
5	Yakuniy qism	10	O'quvchilarni baholash, uyga vazifa berish.	FSMO' (3-ilova)	Darslik

Yangi mavzuning bayoni.

O'quv ko'rgazmali materiallar.

1-ilova

Misol: daryo bo'yidagi ikki qishloq orasidagi masofa 60 km ga teng. Bu masofani kater daryo oqimi bo'yicha 2 soatda, oqimga qarshi esa 3 soatda o'tadi. Katerning va daryo oqimining texliklari o'zgarmas deb faraz qilib, katerning turg'un suvdagi tezligi va daryo oqimining tezligini toping.

Yechish: Katerning turg'un suvdagi tezligi x , daryo oqimining etzligi y ,

$2(x+y)=60$ - karening daryo oqimi bo'yicha 2 soatda bosib otgan yo'li.

$3(x+y)=60$ katerning daryo oqimigq qarshi 3 soatda bosib o'tgan yo'li.

$$\begin{cases} 2(x+y) = 60 \\ 3(x+y) = 60 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x+y = 30 \\ x+y = 20 \end{cases} \quad 2x=50; \quad 2y=10$$

J: Katerning turg'un suvdagi tezligi 25 km/soat, daryo oqimining tezligi 5km/soat

Misol: Agar ikki sonning yig'indisining ikkilangani ularning ayirmasidan 5 ta ortiq , shu sonlar yig'indisining ikkilangani ularning ayirmasidan 8 ta ortiq bo'lsa, bu sonlarni toping.

Yechish: x, y izlanayotgan sonlar bo'lsin:

$$\begin{cases} 2(x+y) = (x-y) + 5 \\ 3(x+y) = (x-y) + 8 \end{cases}$$

$$\begin{cases} 2x+2y = x-y+5 \\ 3x+3y = x-y+8 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x+3y = 5 \\ 2x+4y = 8 \end{cases} \quad x+3y-x+2y=5-4$$

$Y=1; x=2$ J: Izlanayotgan sonlar 2; 1.

Misol: Ikkita qalam va uchta daftar 260 so'm turadi, uchta qalam ikkita daftar esa 240 so'm turadi. Beshta qalam va oltita daftar qancha turadi?

Yechish: x so'm qalam, y so'm daftar bo'lsin.

$$\begin{cases} 2x+3y = 260 \\ 3x+2y = 240 \end{cases}$$

Birinchi tenglamani 3 ga, ikkinchisini 2 ga ko'paytirib, birinchi tenglamadan ikkinchi tenglamani ayiramiz.

$$6x+9y-6x+4y=780-480 \quad 5y=300, \quad y=60, \quad x=40$$

J: qalam 40 so'm, daftar esa 60 so'm.

Mavzuni mustahkamlash uchun masalalar.

2-ilova

1. Ikki soning yig'indisi 51 ga teng, ularning ayirmasi esa 21 ga teng. Shu sonlarni toping?
2. O'quvchi 3 ta umumiy daftarga va 2 ta qalamga a so'm to'ladi. Ikkinchi o'quvchi huddi shunday 2 ta umumiy daftar va 2 ta qalamga b so'm to'ladi. Umumiy daftar necha so'm va qalam necha so'm turadi? (a va b ni o'zingiz tanlang)
3. 14 metr matodan 4 ta erkaklar va 2 ta bolalar paltosini tikish mumkin. Agar 15 m shu matodan 2 ta erkaklar va 6 ta bolalar paltosini tikish mumkin bo'lsa, 1 ta erkaklar va 1 ta bolalar paltosini tikish uchun necha metr mato kerak bo'ladi?
4. To'g'ri to'rtburchakning perimetri 32 sm ga teng. Qo'shni tomonlarning ayirmasi 2 sm ga teng. To'g'ri to'rtburchakning tomonlarini toping.
5. Agar ikki sondan birinchisining ikkilanganidan ikkinchi sonning ayirmasi 7 ga teng, birinchi sondan ikkinchi son ikkilanganining ayirmasi 8 ga teng bo'lsa, shu sonlarni toping.
6. Ikki fermer birgalikda 1456 sr don yig'ib oldi. Birinchi fermer 46 ga maydondan, ikkinchi fermer esa 35 ga maydondan bug'doy yig'ib oldi. Agar birinchi fermer 1 ga maydondan ikkinchisiga qaraganda 7 sr ko'p don yig'ishtirib olgan bo'lsa, har bir fermer bir gektardan o'rtacha necha sentnerdan hosil yig'ib olgan.
7. Ikki ishchi birgalikda 1020 ta maxsulot tayyorladi. Birinchi ishchi 15 kun, ikkinchisi esa 14 kun ishladi. Agar birinchi ishchi 3 kunda ikkinchi ishchi 2 kunda tayyorlaganidan 60 ta ko'p

maxsulot tayyorlagan bo'lsa, har bir ishchi bir kunda nechta maxsulot tayyorlagan?

8. 8 ta ot va 15 ta sigir uchun kuniga 162 kg ozuqa ajratishadi. Agar 5 ta otga 7 ta sigirga qaraganda 3 kg ortiq ozuqa berishganligi ma'lum bo'lsa, har bir otgavahar bir sigirga kuniga qanchadan ozuqa berishgan?

9. Agar ikki son yig'indisining uchlangani ular ayirmasining ikkilanganidan 8 ta ortiq, shu sonlar yig'indisining ikkilangani ular ayirmasidan 6 ta ortiq bo'lsa, shu sonlarni toping.

10. Otasi qizidan 26 yosh katta, 4 yildan keyin u qizidan 3 marta katta bo'ladi. Otasi necha yoshda, qizi necha yoshda?

Darsning yakuni.

3-ilova

Uyga vazifa: Mustaqil yechish uchun misollar.

1.
$$\begin{cases} \frac{x}{25} + \frac{y}{9} = 1 \\ x^2 + y^2 = 1 \end{cases}$$

2.
$$\begin{cases} x + y = 1 \\ x^2 + xy + y = 1 \end{cases}$$

3.
$$\begin{cases} x^2 + xy = 15 \\ y^2 + xy = 10 \end{cases}$$

4.
$$\begin{cases} 4x^2 + y^2 - 2xy = 7 \\ (2x - y)y = y \end{cases}$$

5.
$$\begin{cases} x + y + xy = 5 \\ x^2 + y^2 + xy = 7 \end{cases}$$

6.
$$\begin{cases} 2x^2 + y^2 + 3xy = 12 \\ 2(x + y)^2 - y^2 = 14 \end{cases}$$

7.
$$\begin{cases} x^2 + xy + x = 10 \\ y^2 + xy + y = 20 \end{cases}$$

8.
$$\begin{cases} x^2 + xy + 2y^2 = 37 \\ 2x^2 + 2xy + y^2 = 26 \end{cases}$$

9.
$$\begin{cases} x^3 + y^3 = 7 \\ x^3 x^3 = -8 \end{cases}$$

10.
$$\begin{cases} x^3 + y^3 = 7 \\ xy(x + y) = -2 \end{cases}$$

8-mavzu: Simmetrik ko'phadlar. Butun koeffitsientli ko'phadning ildizlarni topish.

Nazariy dars rejasi

Guruhlar: 20-25 talaba

Dars o'tilgan sana:

O'quv faninig nomi: Algebra

Mavzu nomi: Simmetrik ko'phadlar. Butun koeffitsientli ko'phadning ildizlarni topish.

Darsning maqsadlari:

a) Ta'limiy: O'quvchilarga simmetrik ko'phadlar haqida shu bilan birga butun koeffitsientli ko'phadning ildizlarini topish haqida malu'mot berish.

b) Tarbiyaviy: Mavzuni yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'tib o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirib borish.

c) Rivojlantiruvchi: O'quvchilarni estetik tuyg'ularini shakllantirish.

Darsdan kutilayotgan natijalar: Dars yakunlangandan so'ng o'quvchilar quydagilar haqida bilim va ko'nikma hosil qilishlari lozim.

1. Simmetrik (qaytma) tenglamalar va ularni yechish.
2. Butun koeffitsientli tenglamaning ildizlarini topish usullari.

Ta'lim metodlari: 4x4, guruhlardaishlash

Baholash metodi: 5 ballik tizim.

Axborot manbalari va texnik vositalar:

1. "Algebra va matematik analiz asoslari" 1-qism. A.A. Abduhamedov va boshqalar.
2. Axborotnoma (testlar to'plami).
3. "Oliy matematika qisqa kursi" V.E. Shneyder.

Dars turi: Nazariy, amaliy

Darsga ajratilgan vaqt miqdori: 90 min.

Uyga vazifa: Misollar yechish.

Darsning texnologik xaritasi

T/r	Mashg'ulot bosqichlari	Ajratilgan soat	Mashg'ulot mazmuni	Ta'lim metodlari	Ta'lim vositalari
1	Tashkiliy qism	5	Davomat, xona tozaligi, o'quvchilarning kiyinish odobi.		Jurnal, auditoriya.
2	Kirish qism (motivatsiya)	20	Uyga vazifani so'rash, o'tilgan mavzuni takrorlash	Aqliy hujum, klaster	Doska, kitob , tarqatma materiallar
3	Yangi mavzuning bayoni	30	Simmetrik ko'phadlar. Butun koeffitsientli ko'phadning ildizlarni topish.	4x4 texnologiyasi (1-ilova)	Ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar
4	Mustahkamlash (qo'llash)	25	Misollar echish	Kichik guruhlarda (2,3,4-ilova)	Doska kitob tarqatma materiallar
5	Yakuniy qism	10	O'quvchilarni baholash, uyga vazifa berish.	FSMO' (5-ilova)	Darslik

Yangi mavzuning bayoni.
O'quv ko'rgazmali materiallar.

1-ilova

Simmetrik (qaytma) tenglamalar.

